



**MUDOFAA SANOATIDA XUSUSIY SEKTORNIING
O‘SIB BORISH TENDENSIYASI**

Muhammad Ermamtovich To'xtanazarov

Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
huzuridagi Diplomatik Akademiya magistranti
+998951909010

uznamturgul17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-tahliliy maqola O‘zbekiston mudofaa sanoatida xususiy sektorning o‘sib borayotgan rolini har tomonlama ko‘rib chiqadi. Maqolada global tendensiyalar tahlil qilinib, xususiy sektorning mudofaa sanoatiga jalb etilishining asosiy sabablari va afzalliklari (innovatsiyalarni tezlashtirish, samaradorlikni oshirish, diversifikatsiya, eksport salohiyati) ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida mudofaa sanoatini rivojlantirishda xususiy sektorning istiqbollari, uni jalb etishga turtki bo‘layotgan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, importga qaramlikni kamaytirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish kabi omillar chuqur tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, sifat nazorati, moliyalashtirish va texnologik bilim etishmovchiligi kabi mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo‘llari ko‘rsatilgan. Xulosa qilib aytganda, maqola xususiy sektorning mudofaa sanoatiga integratsiyalashuvi O‘zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishiga strategik hissa qo‘shuvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatib bergan.

Kalit so‘zlar: Mudofaa sanoati, Xususiy sektor, O‘zbekiston, Innovatsiyalar, Iqtisodiy samaradorlik, Texnologik rivojlanish, Importni kamaytirish, Eksport salohiyati, Ish o‘rinlari, MSITF, Harbiy texnika, Milliy xavfsizlik.



Bugungi globallashtirilgan dunyo davlatlarining mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlashda ularning harbiy salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mudofaa sanoati esa bu salohiyatning asosini tashkil etadi. An'anaviy tarzda mudofaa sanoati asosan davlat korxonalari tomonidan nazorat qilingan va boshqarilgan. Biroq, so'nggi yillarda dunyo miqyosida, jumladan, O'zbekiston sharoitida mudofaa sanoati va unda xususiy sektorning o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu maqola xususiy sektorning mudofaa sanoatiga integratsiyalashuvining sabablari, afzalliklari, muammolari va O'zbekiston uchun istiqbollari tahlil qiladi.

Global tendensiyalar va xususiy sektor rolining ortishi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSh kabi davlatlarda "Krupp", "Vickers", "Armstrong" kabi yirik xususiy kompaniyalar mudofaa sanoatida muhim o'rin tutgan. Biroq, Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ko'pgina davlatlar o'z mudofaa sanoatini milliyashtirdi. Sovuq urush davrida strategik muhim tarmoq bo'lganligi sababli, mudofaa sanoati to'liq davlat nazoratida bo'lgan. Lekin, Sovuq urush tugagandan so'ng, geosiyosiy vaziyat o'zgarishi, yangi tahdidlarning paydo bo'lishi va texnologik inqiloblar natijasida davlatlar mudofaa xarajatlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirish yo'llarini izlay boshladi. Aynan shu nuqtada xususiy sektorning salohiyatiga e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida mudofaa sanoatida faoliyat yuritayotgan yirik kompaniyalarning aksariyati "Lockheed Martin", "Boeing", "BAE Systems", "Raytheon Technologies", "Northrop Grumman" kabi xususiy korxonalardir. Ular nafaqat yuqori texnologiyali qurol-yarog' va harbiy texnika ishlab chiqarishmoqda, balki ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTK) ham katta sarmoya kiritishmoqda. Bu xususiy kompaniyalarning faoliyati davlatlarga yangi, samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul mudofaa yechimlarini yaratishga yordam bermoqda.



Faoliyat yoʻnalishi va koʻlamidan qatʻiy nazar, xususiy sektorning mudofaa sanoatidagi ishtiroki koʻplab afzalliklarni beradi. Xususan,

- *Innovatsiyalarni jadallashtirish.* Xususiy kompaniyalar kuchli raqobat muhitida faoliyat yuritgani sababli, doimiy ravishda innovatsiyalarga intiladi. Bu esa mudofaa sanoatida yangi texnologiyalar va ilgʻor yechimlarning joriy etilishini tezlashtiradi.

- *Samaradorlikni oshirish.* Xususiy sektorning asosiy maqsadi foyda olish boʻlganligi sababli, ular resurslardan yanada samarali foydalanishga va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga intiladi. Bu oʻz navbatida, davlat byudjeti uchun sezilarli iqtisodiy taʼsir koʻrsatadi.

- *Diversifikatsiya va eksport salohiyati.* Xususiy kompaniyalar ichki bozor bilan cheklanib qolmasdan, tashqi bozorlarga chiqishga intiladi. Bu jarayon mudofaa sanoati mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishga va valyuta tushumlarini koʻpaytirishga yordam beradi.

- *Texnologiya transferi va malaka almashinuvi.* Xususiy sektorning jalb etilishi davlat mudofaa korxonalarida zamonaviy boshqaruv usullari, ishlab chiqarish texnologiyalari va marketing strategiyalarini joriy etishga yordam beradi.

- *Ish oʻrinlarini yaratish va malakali kadrlar tayyorlash.* Mudofaa sanoatida xususiy korxonalarning paydo boʻlishi yangi ish oʻrinlarini yaratadi va texnik mutaxassislar, muhandislar va tadqiqotchilar uchun talabni oshiradi.

Oʻzbekistonda mudofaa sanoatining rivojlanishi va xususiy sektorning istiqbollari

Oʻzbekiston oʻzining mudofaa salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan doimiy saʼy-harakatlarni amalga oshirmoqda. Soʻnggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat mudofaa sanoatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston armiyasi zamonaviy qurol-yarogʻ va harbiy texnika bilan taʼminlanmoqda, harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati oshirilmoqda.



2017-yilda Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasining tashkil etilishi, 2023-yilda esa mazkur qo‘mita negizida Mudofaa vazirligi huzurida Mudofaa sanoati agentligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzurida “O‘ztextreyd” davlat unitar korxonalarining tuzilishi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika bilan qurollantirish tizimini takomillashtirish, shu bilan birga, mudofaa sanoati samarali faoliyat yuritishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilishiga asos bo‘ldi.

O‘zbekistonda mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarish an’anaviy ravishda asosan davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, xalqaro tajriba va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasidan kelib chiqqan holda, mudofaa sanoatida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan buyurtma asosida sohaga xususiy sektorni kengroq jalb etib, harbiy va ikki xil maqsadga mo‘ljallangan mahsulot turlarini ko‘paytirish choralari ko‘rilmoqda. Ishlab chiqarishni muntazam takomillashtirish, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish, innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish, mutaxassislarni tizimli tayyorlash, yangi texnikalar bo‘yicha ilmiy laboratoriyalar tashkil etish masalalariga e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda xususiy sektorning mudofaa sanoatiga jalb etilishiga bir qator omillar turtki bo‘lmoqda:

Birinchidan, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va davlat yukini kamaytirish

An’anaviy mudofaa sanoati davlat byudjetidan katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Xususiy kompaniyalar o‘z mablag‘lari va jalb qilingan investitsiyalar hisobiga mudofaa sanoatiga sarmoya kiritish imkoniyatiga ega. Bu esa davlat byudjetiga tushadigan yukni sezilarli darajada kamaytiradi, chunki mudofaa korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni sotib olish va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun davlatdan qo‘shimcha mablag‘ talab qilinmaydi.



Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va importga qaramlikni kamaytirish

Har qanday davlatning mudofaa sohasidagi mustaqilligi uning o'z resurslari hisobiga mudofaa ehtiyojlarini qondira olish qobiliyatiga bog'liq. Xususiy kompaniyalar moslashuvchanligi va tezkorligi tufayli qurol-yarog', harbiy texnika ehtiyot qismlari, aloqa vositalari, dronlar, razvedka uskunalari, maxsus kiyim-kechak va boshqa zaruriy vositalarni ishlab chiqarishga qodir. Bu mamlakatning mudofaa sanoati portfelini diversifikatsiya qiladi va turli xil harbiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish

Xususiy kompaniyalar o'rtasidagi raqobat ularni doimiy ravishda yangi va samaraliroq yechimlarni izlashga undaydi. Ular ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (ITTK) ishlariga sarmoya kiritishdan manfaatdor, chunki bu ularga bozorda ustunlik beradi. Xususiy sektor xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, ilg'or texnologiyalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun ochiqroq bo'ladi. Shuningdek, mudofaa sohasidagi xususiy sektorning rivojlanishi yangi startaplarning paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu kichik, ammo yuqori texnologiyali kompaniyalar noyob g'oyalar va yechimlar bilan chiqishi, an'anaviy ishlab chiqarish jarayonlarida topilishi qiyin bo'lgan innovatsiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish

Yuqori texnologiyali mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarish muhandislar, dasturchilar, tadqiqotchilar, malakali texnik xodimlar va boshqa mutaxassislar uchun yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratadi. Bu esa yoshlar uchun jozibador kasblarni taklif etadi va mamlakatning kadrlar salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, mahalliy xususiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori sifatli va raqobatbardosh mudofaa mahsulotlari xalqaro bozorlarga eksport qilinishi mumkin. Bu mamlakatga valyuta tushumlarini ko'paytiradi, iqtisodiyotni diversifikatsiya qiladi va O'zbekistonning jahon



mudofaa sanoati xaritasidagi o'rnini mustahkamlaydi. Eksport imkoniyatlari xususiy kompaniyalarni o'z mahsulotlarining sifati va raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirishga undaydi.

Mamlakatimiz xalqaro ko'rgazmalar orqali ham mudofaa sanoati sohasini rivojlantirishga erishmoqda. Mahalliy kompaniyalar muntazam ravishda xalqaro harbiy-texnik ko'rgazmalarda ishtirok etib, o'z mahsulotlarini taqdim etmoqda va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlamoqda. Mazkur ko'rgazmalar natijasida Turkiya, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan texnologik hamkorlik shartnomalari imzolashga erishilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda ham mudofaa sanoatiga bag'ishlangan ko'rgazma va konferensiyalarni tashkil etish tajribasi yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, 2024 va 2025-yillarda Mudofaa vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan "MSITF" (Mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali) bu jarayonning amaliy ifodasiga aylandi.

"MSITF - 2024" festivali mamlakat mudofaa sohasidagi ilmiy-innovatsion faoliyat uchun yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadbirda respublika barcha ta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchi va talabalari, xususiy sektor va startap loyihalari ishtirok etdi. "MSITF – 2025" festivalida ham yuqoridagi an'analarni davom ettirgan holda zamonaviy texnologiyalar, metallurgiya, kimyo sanoati hamda to'qimachilik sohalarida faoliyat yuritayotgan, ikki maqsadga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavod, korxona va tashkilotlar o'z ishlanmalari bilan ishtirok etishdi. Shuningdek, festival doirasida robototexnika, 3D modellash tirish texnologiyalari, uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalash, dasturlash, dron poygasi, raketa modellash tirish, "Robot War" jangovar robotlar musobaqasi va kibersport yo'nalishlari bo'yicha amaliy tanlov va musobaqalar tashkil etildi.

Mazkur festivallar iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalarini davlat mudofaa tizimi bilan bog'lash, ta'lim muassasalari, tadqiqot markazlari va biznes vakillari o'rtasida



kollaboratsiya platformasini yaratish, texnologik g'oyalarni real prototipga va so'ngra ishlab chiqarishga olib chiqish zanjirini shakllantirish, mudofaa sohasiga daxldor turli istiqbolli sohalarda mahalliy innovatsiyalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hozirda O'zbekistonda ba'zi xususiy kompaniyalar maxsus uskunalar, aloqa vositalari va ba'zi texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Biroq, ularning ishtirokini yuqori texnologiyali qurol-yarog' va harbiy texnika ishlab chiqarish sohasiga kengaytirish muhim. Bu borada, hukumat tomonidan xususiy kompaniyalarga mudofaa buyurtmalarini berish, qo'shma korxonalar tashkil etishni qo'llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot ishlariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilishi lozim.

Mudofaa sanoatida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bir qator muammolarni ham inkor etmaydi. Misol uchun: xususiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning davlat standartlari va talablariga to'liq javob berishini ta'minlash uchun samarali sifat nazorati tizimini yo'lga qo'yish zarur. Mudofaa sanoati yuqori sarmoyalarni talab qiladi. Xususiy kompaniyalarni ushbu sohaga jalb qilish uchun ularga moliyaviy imtiyozlar, subsidiya va kreditlar taqdim etishga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Yuqori texnologiyali mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetarlicha tajriba va bilimga ega xususiy kompaniyalar soni cheklangan bo'lishi mumkinligi bu borada davlat mudofaa korxonalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, hamda xorijiy kompaniyalar bilan tajriba almashinuvini tashkil etishga zarurat tug'diradi. Mudofaa sanoatida xususiy sektorning ishtirokini tartibga soluvchi aniq va shaffof huquqiy asoslar yaratish talab etiladi. Bu investitsiyalarni jalb qilish va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu masalada hukumat tomonidan qulay investitsiya muhiti yaratish, xususiy kompaniyalarga imtiyozlar berish, kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'maklashish, shuningdek, davlat mudofaa korxonalari bilan xususiy sektor o'rtasida



o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali tajriba va texnologiya almashinuvini rag‘batlantirishga bo‘lgan ehtiyoj dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Mudofaa sanoatida xususiy sektorning o‘sib borish tendensiyasi zamonaviy dunyoning ob‘ektiv voqeligidir. Ushbu tendensiya innovatsiyalarni tezlashtirish, samaradorlikni oshirish va mamlakatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston uchun ham bu tendensiya muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy xususiy kompaniyalarning mudofaa sanoatiga faol jalb etilishi, nafaqat harbiy sohaning rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy o‘shishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Buning uchun, mudofaa sanoatida xususiy sektorning ishtirokini rag‘batlantiruvchi qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yanada takomillashtirilishi lozim. Shaffof tender tizimlari, moliyaviy imtiyozlar, texnik yordam va kadrlar tayyorlash dasturlari orqali mahalliy xususiy kompaniyalarning salohiyatini oshirish zarur. Shu bilan birga, xavfsizlik va sifat nazorati masalalariga alohida e‘tibor qaratib, tizimli yondashuvni ta‘minlash lozim. Faqatgina shundagina, mamlakat mudofaa sanoatida xususiy sektorning o‘sib borish tendensiyasidan to‘liq foydalangan holda o‘z mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlay oladi va mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni.
“Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
<https://lex.uz/docs/6324756>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni.
“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurollantirish va mudofaa sanoati sohasida



davlat boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"

<https://lex.uz/docs/6375794>

3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari.
(www.mod.gov.uz)
4. SIPRI (Stockholm International Peace Research Institute) hisobotlari va ma'lumotlari.
(www.sipri.org)
5. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil etilgan "MSITF"
(Mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali) tadbirlari materiallari va press-
relizlari (2024, 2025).
6. Mahalliy OAV va internet resurslaridagi mudofaa sanoati rivojlanishiga oid tahliliy
maqolalar va yangiliklar.